

## **QANDLI DIABET BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA YURAK-QON TOMIR ASORATLARINING OLDINI OLIHDA ZAMONAVIY TERAPIYA USULLARI.**

**Talaba: Makhmudova Syrayyo**  
**Abdulkhakimovna Alfraganus Universiteti,**  
**Tibbiyot fakulteti, Davolash ishi yo‘nalishi 5-**  
**bosqich talabasi**

**Ilmiy rahbar: Xamroyeva Yulduz Saidovna**  
**Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti**  
**Klinik fanlar kafedrası o‘qituvchisi.**

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy tezisda qandli diabet (QD) bilan og‘rigan bemorlarda yurak-qon tomir tizimi asoratlarini kamaytirish hamda ularni oldini olishda qo‘llaniladigan zamonaviy davo usullari, ularning klinik samaradorligi va profilaktik ahamiyati yoritilgan.

Tadqiqotda glyukozani nazorat qilish, lipid almashinuvi buzilishlarini tuzatish, antitrombotik va antioksidant terapiyaning o‘rni tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** qandli diabet, yurak-qon tomir asoratlari, giperglikemiya, antitrombotik terapiya, metformin, statinlar.

**Kirish:** Qandli diabet – bu uglevodlar almashinuvining surunkali buzilishi bilan kechuvchi endokrin kasallik bo‘lib, uning eng xavfli oqibatlaridan biri — yurak-qon tomir asoratlaridir.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, diabet bilan og‘rigan bemorlarning 60–70% da yurak ishemik kasalligi, insult yoki ateroskleroz rivojlanadi. Shu sababli, diabetik kardiovaskulyar profilaktika bugungi kun terapiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

**Maqsad:**

Qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlarda yurak-qon tomir asoratlarini kamaytirish va ularning oldini olishda zamonaviy terapiya yondashuvlarining klinik samaradorligini oʻrganish

## **Materiallar va metodlar**

Tadqiqotda 2023–2025-yillarda kuzatilgan 60 nafar 2-turdagi qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlarning klinik holatlari oʻrganildi.

### **Bemorlar ikki guruhga boʻlindi:**

1-guruh (nazorat) — standart insulin terapiyasi olgan bemorlar (30 nafar).

2-guruh (tajriba) — insulin bilan bir qatorda metformin, statin va ACE-ingibitorlar qoʻllanilgan bemorlar (30 nafar).

Natijalar shuni koʻrsatadiki, glyukozaning oʻrtacha darajasi, HbA1c, LDL/xolesterin, EKG va qon bosimi koʻrsatkichlari orqali baholandi.

## **Natijalar**

Tajriba guruhida HbA1c darajasi oʻrtacha 1,4% ga kamaydi. LDL xolesterin 20–25% ga pasaydi, EKGda yurak yuklamasi belgilarining kamayishi kuzatildi. Yurak-qon tomir asoratlari (angina pektoris, gipertoniya kuchayishi, stenokardiya) holatlari 35% kam uchradi. Metformin va statinlar birgalikda qoʻllanilganda aterosklerotik jarayonlar sekinlashgani kuzatildi.

## **Muhokama**

Oʻtkazilgan tadqiqotlardan olingan maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlarda yurak-qon tomir asoratlarini oldini olishda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Faqat glyukozani nazorat qilish emas, balki lipid almashinuvini barqarorlashtirish, qon ivish faoliyatini meʼyorga keltirish va oksidlovchi stressni kamaytirish ham yurak faoliyatini himoya qiladi.

## **Xulosa**

1. Qandli diabetda yurak-qon tomir asoratlarning oldini olish uchun kompleks terapiya muhim o‘rin tutadi.
2. Metformin, statin va ACE-ingibitorlarning kombinatsiyasi yurak faoliyatini yaxshilaydi va asoratlar xavfini kamaytiradi.
3. Diabetik bemorlarda muntazam laborator nazorat, sog‘lom turmush tarzi va doimiy tibbiy kuzatuv yurak sog‘lig‘ini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. “Qandli diabet diagnostikasi va davosi bo‘yicha klinik protokollar”, 2023-yil.
2. American Diabetes Association. Standards of Medical Care in Diabetes — 2024.
3. CardioMetabolic Research Journal, 2023, Vol.12, No.4: “Modern approaches in prevention of diabetic cardiovascular complications.”